



XALQARO XUSUSIY HUQUQDA OILA MUNOSABATLARIDA VUJUDGA KELAYOTGAN HUQUQIY MUAMMOLAR: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Abduxakim Ne'matov

Toshkent davlat yuridik universiteti

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti talabasi*

Annotatsiya: XXI asrdagi rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida, sivilizatsion ko'rsatkichlar ilm-fan, texnika, savdo-sotiq va insonlar o'rtasidagi kommunikativ aloqalarga ham o'z ta'sirini o'tkazayotganining shohidi bo'lmoqdamiz . Hozirgi kundagi harakatlanishning erkinligi, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chib o'tishning o'tgan davlarga nisbatan ancha soddalashgani insonlar o'rtasidagi yangidan-yangi tanishuvlar, hamda buning natijasida aksariyat hollarda turli mamlakatlar fuqarolari o'rtasida oila va nikoh munosabatlariga kirishishlariga olib kelmoqda . Mazkur maqolada xalqaro xususiy huquqdagi oila munosabatlarida vujudga kelayotgan huquqiy muammolar, hamda ushbu muammolarni o'rgangan holda ularga optimal yechimi bo'lishi mumkin bo'lgan usullar va takliflar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Oila-nikoh munosabatlari, oila huquqi, , oqsoq nikohlar, erk muxtoriyati, Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi

ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ: РЕШЕНИЯ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ.

Аннотация:

В процессе анализа показателей развития в XXI веке мы наблюдаем, что показатели цивилизации оказывают влияние на науку, технику, торговые и коммуникативные отношения между людьми. Сегодняшняя свобода передвижения, упрощение переезда из одной страны в другую по сравнению с прошлым, приводит к новым знакомствам между людьми, и в результате в большинстве случаев завязываются семейные и брачные отношения между гражданами разных стран. В данной статье анализируются правовые проблемы, возникающие в семейных отношениях в международном частном праве, а также методы и предложения, которые могут стать их оптимальным решением.

Ключевые слова: брачно-семейные отношения, семейное право, хромающие браки, автономия воли, Гаагская конференция по международному частному праву.

Kirish.

Insoniyat evolyutsiyasini tahlil qilish jarayonida ko'rishimiz mumkinki, jamiyat mexanizmidagi asosiy figurant bu oila hisoblanadi. **Oila - nikoh** va qarindoshlik, hissiy





aloqa va bir-biriga o'zaro javobgarlik aloqalariga asosnlangan, a'zolari umumiy yashash joyi va uy-ro'zg'or ishlari bilan birlashtirilgan kichik guruh hisobalnadi.¹³⁶ Oila so'zini turlicha nuqtai nazardan turlicha talqin qilishimiz mumkin. **Sotsiologik** ma'noda oila - bu nikohga, shuningdek, qarindoshlik, faktik nikoh munosabatlariga, oilada bolalarni tarbiyalash uchun qabul qilishga asoslangan, umumiy hayot, manfaatlar va o'zaro g'amxo'rlik bilan tavsiflangan shaxslar ittifoqidir. **Huquqiy** nuqtayi nazardan, oila - bu nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki oilada tarbiyalash uchun bolalarni asrab olishning boshqa shakllaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxslar doirasi.¹³⁷ Oila ibridoiy jamiyatda ham, antik yoki hozirgi zamonaviy davlatchilik tizimida ham universal va asosiy rol o'ynaydi. Yuqoridaq keltirgan faktlarni huquqiy izohlash sifatida 1948-yilgi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning 16-moddasiga e'tiborimizni qaratishimiz lozim: "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy yacheykasi bo'lib, jamiyat va davlat tomonidan himoyalanish huquqiga ega."

Oila ibridoiy jamiyatda ham, antik yoki hozirgi zamonaviy davlatchilik tizimida ham universal va asosiy rol o'ynaydi. Qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, oilaning davlat va jamiyat mexanizmidagi asosiy roli demografik aspektida namoyon bo'ladi. Teologik yoki dunyoviy qonunchillikka ko'ra oila institutini barpo etishda nikoh sezilarli darajada katta ahamiyat ega hisoblanadi. Nikoh atamasiga amaldagi xalqaro huquqda va milliy qonunchilikda, xususan O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi"da ham atroflicha ta'rif berilmagan. Biroq nikohga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Nikoh - turmush o'rtoqlar deb ataladigan odamlar o'rtasidagi madaniy va ko'pincha qonuniy ravishda tan olingan ittifoqdir. Nikoh turmush o'rtoqlar o'rtasidagi, shuningdek, ular va ularning farzandlari,qarindoshlari o'rtasida huquq va majburiyatlarni o'rnatadi. Xalqaro xususiy huquqda nikoh va oilaviy munosabatlar – bu chet el individi bilan murakkablashgan, nikohni tuzish va bekor qilish, nikohni haqiqiy emas deb topish, er-xotinlar o'rtasidagi mulk rejimini belgilash, ta'minot majburiyatları, farzandlikka olish, vasiylik, homiylik va boshqa tegishli masalalarni o'z ichiga oladi. Umumiylig qilib aytganda, oila-nikoh munosabatlari bir tomonidan qarindoshlikka asoslangan yoki bunday qarindoshlikni vujudga keltirishga qaratilgan, ikkinchi tomonidan mulkiy xususiyatga ega va fuqarolik huquqi bilan an'anaviy tartibga solinadigan murakkab ijtimoiy munosabatlar majmuasidir. Hozirgi vaqtida rivojlanish jarayoning tezlashib ketishi insonlar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarga, shuningdek mamlakatlarning ichki huquq tizimlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Buning natijasida xalqaro xususiy huquqdagi oila munosabatlarida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda.

Muhokama va muammolarga yechim va takliflar

¹³⁶ РОЛЬ И МЕСТО СЕМЬИ В ОБЩЕСТВЕ И ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРОГРАММА ДЛЯ ЕЕ СОХРАНЕНИЯ Г.К.Кулдышева , д-р юрид. наук, профессор Ш.И. Мадышева

¹³⁷ Ольга Александровна Рузакова Семейное право. Учебник ст.5





Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, globalizatsiya davridagi integratsiyalashuv protsessi, urbanizatsiya,migratsiya aktlari va boshqa bir qancha sabablar tabiiyki dunyo mamlakatlaridagi ajnabiyligining fuqarolarning mamlakat hududidagi turli xil ijtimoiy jabhalarda faol aktor sifatida ishtirok etishiga olib kelmoqda. Ajnabiyligining fuqaroligi bo'limgan shaxslar, qochoqlar va mahalliy aholi o'rtasidagi faol aloqalar mehnat, madaniyat, ta'lim, sport, oila va boshqa munosabatlarida o'z aksini topmoqda . Hech kimga sir emaski , hozirgi kunda chet el fuqarolari va muayyan mamlakat fuqarosi o'rtasidagi oilaviy-huquqiy munosabatga kirishish holatlari ko'p kuzatilmoxda. Buning bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy oqibatlar keltirib chiqarayotganini ham guvohi bo'lmoqdamiz . Mana shunday holatlarning ko'p kuzatilayotganligi xalqaro xususiy huquqdagi oilaviy-huquqiy munosabatlarda ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xalqaro xususiy huquqda vujudga kelayotgan oilaviy-huquqiy munosabatlardagi muammolar nafaqat qonunni qo'llash va nizolarni hal qilish amaliyotda, balki oilaviy-huquqiy munosabatlarning ilmiy-doktrinal sohalarida ham ko'zga ko'rinxinmoqda. Hozirigi kunda olimlar o'rtasida oilaviy munosabatlarning xalqaro xususiy huquq predmetiga mansubligi to'g'risida bugungi kungacha fanda yagona yakdil fikr mavjud emas¹³⁸. Xalqaro xususiy huquq fani predmeti haqidagi ta'limotlar uni tor va keng ma'noda ko'rib chiqadi. Xalqaro xususiy huquq fanining keng talqindagi tushunchasiga ko'ra xalqaro xususiy huquq tizimiga nafaqat sof fuqarolik-huquqiy institatlarni, balki xususiylik xususiyatiga ega bo'lgan boshqa huquq sohalari, jumladan, oilaviy huquq institutlarini ham integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ko'pchilik olimlar bu konsepsiyanı qo'llab-quvvatlamoxda va ushbu g'oyaning yetakchi namoyondalari sifatida G.K.Dmitrieva, V.P.Zvekov va boshqa bir qator olimlarni keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga, boshqa olimlar o'z asarlarida xalqaro xususiy huquq subyektining fuqarolik-huquqiy tabiatini unga oila yoki mehnatning turdosh toifalarini kiritishga imkon bermaydi degan fikrni asoslaydilar. Ular tomonidan olg'a surilayotgan fikrga ko'ra, ular tor ma'nodagi tushuncha tarafdarlari ekanliklarini, ya'ni oilaviy-huquqiy munosabatlarning shaxsiy individlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi (xususiylik xususiyati) uni xalqaro xususiy huquq sohasiga kiritishga sabab bo'la olmasligini ta'kidlaydilar. Hozirigi kunda ko'pgina davlatlar oilaviy huquqni fuqarolik huquqidan ajratib, uni mustaqil huquq sohasi sifatida ajratib ko'rsatadilar (Lotin Amerikasi, Sharqiy Yevropa, Jazoir, Rossiya). Kontinental Yevropa mamlakatlarida oilaviy va nikoh munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy manbalar fuqarolik kodekslarining maxsus bo'limlari (Shveysariya, Italiya, Germaniya), ayrim mamlakatlarda esa oila va nikoh to'g'risidagi maxsus qonunlar hisoblanadi. Oila va

¹³⁸ Some actual problems of family relations in private international law the authors:Novikova Inna Abdullin A.I





nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solish uchun ommaviy huquq komponenti muhim rol o'ynaydi. Xalqaro xususiy huquqdagi oilaviy-huquqiy munosabatlarda ommaviy va xususiy huquq normalari to'plami sifatida belgilanadi. Odatda, xalqaro oila huquqi xususiy huquq bilan bog'liq milliy huquq tarmoqlari tizimining bir qismi sifatida e'tirof etiladi, ammo bu masalada davlat tomonidan tartibga solishning namoyon bo'lishi fuqarolik huquqi sohalariga qaraganda ko'p qirrali hisoblanadi. Bu davlatning yangi avlodlar rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni ta'minlashga intilayotgani, aholini ko'paytirish masalalarini nazorat qilishga intilayotgani va aniq demografik siyosat olib borayotgani, umumiy qilib aytganda davlatning ushbu sohadagi siyosiy-huquqiy dasturi bilan izohlanadi. Ammo shuni tushunish kerakki, yuqorida keltirib o'tilgan **nikoh** va **oila** atamalariga berilgan ta'riflar barcha davlatlar qonunchiligiga mos kelmaydi. Doktrina nikohni nikoh-sheriklik, nikoh holati yoki nikoh shartnomasi sifatida belgilaydi. Xususiy huquqda nikoh atamasiga nisbatan eng keng tarqalgan nuqtai nazar - bu nikoh munosabatlari hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'kidlanganidek, hozirgi vaqtida nikoh va oilaviy munosabatlar hududiy jihatdan tobora chegara bilmas, turli xil fuqarolikka va ba'zi hollarda apatriid, bipatriid, hamda qochoqlar o'rtasidagi nikohlar yoki nikoh munosabatlari xorijiy davlat hududida sodir bo'layotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shunday qilib, oilaviy munosabatlardagi chet el element o'zini quyidagicha namoyon qilishi mumkin:

- 1) uning ishtirokchilaridan kamida bittasining chet el fuqaroligi;
- 2) ishtirokchilardan kamida bittasining fuqaroligi yo'qligi;
- 3) huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining chet elda yashash joyi;
- 4) huquqlar obyektining chet elda joylashgan joyi (masalan, chet elda turmush o'rtoqlarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulkning joylashgan joyi);
- 5) yuridik faktini chet elda mahalliylashtirish (masalan, chet elda nikoh tuzilganligi).

Chet el elementi bilan nikoh va oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning xususiyatlari har bir davlat bunday tartibga solishni o'ziga xos tarzda amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Bu milliy, ijtimoiy va diniy omillar bilan bog'likdir. Moddiy huquqiy normalar xilma-xil bo'lganligi sababli, zaruriy huquqiy tartibni topishning asosiy vositasi kollizion normalar hisoblanadi. Chet el elementi bilan nikoh va oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning xususiyatlari har bir davlat bunday tartibga solishni o'ziga xos tarzda amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Bu milliy, ijtimoiy va diniy omillar bilan bog'liq. Moddiy huquqiy normalar xilma-xil bo'lganligi sababli, zaruriy huquqiy tartibni topishning asosiy vositasi qonunlar ziddiyatidir.

Hozirgi kunda xalqaro xususiy huquqdagi oilaviy huquqiy munosabatlardagi asosiy va kollizion muammolar sifatida quyidagilarni e'tirof etishimiz mumkin:

- "cho'loq yoki oqsoq" nikohlar;
- nikoh shartlari va shakllarining farqlanishi;
- bir jinslilar o'rtasidagi nikohlar;





- va'da qilingan nikohga kirishdan bosh tortganlik uchun noqonuniy majburlash choralari;

- monogamiya va ko'pxotinlilik;
- diniy yoki irqiy cheklovlar;
- oila qurish uchun ruxsat zarurligi (vasiyalar yoki ota-onalar, diplomatik ruxsat);
- ajnabiylar bilan turmush qurishni taqiqlash va hakazolar.¹³⁹

Moddiy sharoitlar konsepsiysi mazmunida bir xillikning yo'qligi keyinchalik "oqsoq nikohlar" ya'ni, bir davlatda tan olinadigan va boshqasida tan olinmaydigan nikohlarni keltirib chiqaradi.¹⁴⁰ **Oqsoq nikoh** - bu bir davlat qonunlariga muvofiq rasman tan olingan va boshqa davlat hududida mutlaqo rad etilgan ittifoq. Buning sabablari turli davatlarda amaldagi oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlardagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga keladi.

Asosan, oqsoq nikohlar quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

- fuqaroning rasmiy tarzda oila qurishi ruxsat berilgan yoshga bog'liq, ya'ni nikoh yoshi har bir davlatda turlicha bo'lishi mumkin.
- nikoh shakliga qarab (Ayrim davlatlar qonunchiligidagi nikohning tuzilish jarayoni farq qiladi. Aksariyat davatlarda qonuniy, boshqa davatlarda esa diniy nikoh tuzish usullari amalda hisoblanadi.)

"Oqsoq" nikohlar masalasini tahlil qilar ekanmiz, hozirda oila va nikoh tushunchasi tubanlashib borayotganligini kuzatmoqdamiz. Masalan, nikoh endi har doim ham erkak va ayolning alyansi¹⁴¹ sifatida emas, balki bir jinslilar o'rtasidagi ittifoq sifatida ham e'tirof etilmoqda.¹⁴² So'nggi bir necha yil ichida "Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi"¹⁴³ amaliyotini hisobga olsak, aynan shu muammo ko'pincha nikohga kirish huquqi va nikohni haqiqiy deb tan olish bilan bog'liq ishlarda ko'rib chiqilishini ko'rish mumkin. (masalan, "Schalk va Kopf Avstriyaga qarshi"¹⁴⁴) Biroq bir jinslilar o'rtasidagi nikohlar shariat qonunlari amal qiladigan va boshqa bir qancha mamlakatlarda ta'qiqlangan hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Republikasi Jinoyat kodeksining 120-moddasiga muvofiq, "besoqolbozlik" sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Mamlakatlarda turlicha e'tirof etiladigan, hamda farq qilinishi mumkin bo'lgan nikoh shakli oilaviy huquqiy munosabatlarda alohida ahamiyatga ega. Ba'zi mamlakatlar qonunchiligi faqat fuqarolik shaklini (Rossiya, Shveytsariya, Fransiya va boshqalar) yoki faqat diniy (Isroil, Iraq, Eron va boshqalar) shaklini belgilaydi. Ayrim davlatlar (Buyuk Britaniya, Ispaniya, Daniya va boshqalar) kombinatsion tarzda fuqarolik yoki diniy shaklini nazarda tutadi, Misol uchun, Isroilda, agar nikoh sinagogada¹⁴⁵ qayd etilsagina tan olinadi.

¹³⁹ Гетьман Павлова И.В Междунородное астное право ст 334

¹⁴⁰ Г. К. Дмитриева Международное частное право учебник ст 574

¹⁴¹ Fransuzcha(alliance) ittifoq, birlashuv

¹⁴² В. А. Цветков Защита семейных прав в Европейском Суде по правам человека

¹⁴³ Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (ECHR yoki ECПЧ), shuningdek, Strasburg sudi sifatida ham tanilgan, Yevropa Kengashining xalqaro sudi bo'lib, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi

¹⁴⁴ [Schalk and Kopf v. Austria] (№ 30141/04)

¹⁴⁵ Yahudiy ta'lilotiga ko'ra, mazkur dinga e'tiqod qiluvchilarning ibodatxonasi





Xalqaro xususiy huquqda kollizion masalalarni hal qilishda muhim rolni unifikatsiya jarayoni o'ynaydi deb ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Xalqaro xususiy huquqda oilaviy-huquqiy masalalarni hal qilishga qaratilgan unifikatsiya jarayonlari ham bundan mustasno emas. Xorijiy huquqiy tartibga solish sohasida oilaviy va nikoh munosabatlaridagi normalarni unifikatsiya qilish jarayoni XX asrning 1902-yilda "Er-xotinlarni sud orqali ajratish va nikohni tugatish sohasidagi yurisdiksiya va qonunlar nizolarini tartibga solish to'g'risidagi" Gaaga konvensiyasining qabul qilinishi bilan boshlandi. Shundan beri, nikoh va oila masalalarini hal qilishga qaratilgan 50 dan ortiq turli konvensiyalar qabul qilingan, ammo ularning hammasi ham kuchga kirmagan. Bugungi kunga kelib oila huquqi sohasidagi eng muhim mintaqaviy va universal xalqaro shartnomalar quyidagilar hisoblanadi:

- Bolalarni asrab olish to'g'risidagi Strasburg konvensiyasi (2008);
- Bolalarni qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllari va alimentlarni undirishning xalqaro tartibi to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (2007);
 - Bolalar huquqlarini amalga oshirish to'g'risidagi Strasburg konvensiyasi (1996);
 - Bolalarni himoya qilish choralari va ota-onalarning mas'uliyati bo'yicha hamkorlik, ijro etish, tan olish va yurisdiksiya to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (1996);
 - Xorijiy farzand asrab olish va bolalarni himoya qilish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (1993);
 - Bolalarning vasiyligi va bolalarning vasiyligini tiklashga oid qarorlarni ijro etish va tan olish to'g'risidagi Lyuksemburg konvensiyasi (1980);
 - Xalqaro bolalarni o'g'irlashning fuqarolik jihatlari to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (1980);
 - Nikohlarning tan olinishi va haqiqiyligi to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (1978);
 - Ajralishlar va ajralishlarni tan olish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (1970);
 - Bolalarni asrab olish to'g'risidagi Strasburg konvensiyasi (1967);
 - Nikohlarni ro'yxatga olish, nikoh yoshi va nikohga rozilik to'g'risidagi BMTning Nyu-York konvensiyasi (1962);

Oila va nikoh munosabatlarini tartibga soluvchi ushbu shartnomalar majmuasining mavjudligi "xalqaro oilaviy huquq" atamasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Xalqaro xususiy huquqda nikoh va oila bilan bog'liq nizolarni hal qilishda qonunchilikni tanlash protsessi muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyat va doktrinaga muvofiq qonunchilikni o'rnatish uchun quyidagi usullar mavjud:

1. nikoh shartnomasi tuzilgan joyning qonuni;
2. oilaviy umumiylar mulkni topish qonuni;
3. bolaning shaxsiy qonuni;
4. oxirgi birgalikdagi yashash huquqi;
5. turmush o'rtoqlar birgalikda yashaydigan mamlakat qonuni;
6. sud qonuni;
7. muassasa vakolatlari to'g'risidagi qonun;
8. farzandlikka oluvchining shaxsiy qonuni;





9. bolaning doimiy istiqomat qiladigan mamlakat qonuni;
10. er-xotinning shaxsiy qonuni;
11. nikoh joyi qonuni.

Nikoh va oilaviy munosabatlardagi muammolarni tahlil qilar ekanmiz, ularning eng optimal yechimlari sifatida quyidagilarni taklif etamiz.

1. *Erk muxtoriyatining rolini yanada oshirish.*

Biz taklif qilayotgan eng optimal yechim aynan erk muxtoriyati hisoblanadi. Xususiy huquqni ommaviy-huquqiy munosabatlardan ajratib turuvchi faktorlardan biri tomonlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlariga o'z xohish va erklari bilan kirishishida namoyon bo'ladi. Oilaviy huquqiy munosabatlarda ham bo'lajak turmush o'rtoqlar nikoh va oila munosabatlarining turli aspektlarini ongli tarzda bilgan holda oila qurishadi. Ajrashish masalalarida ham kontragentlar o'rtasida o'zaro konsensusga kelish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2. *Oila va nikoh munosabatlarini tartibga soluvchi normalarni unifikatsiya qilish yoki amaldagi xalqaro shartnomalarga tuzatishlar kiritish .*

Mazkur taklifga ko'ra xalqaro xususiy bo'yicha Gaaga konferensiyasi amaldagi konvensiyalarga o'zgartirishlar kiritish yoki oila va nikoh masalalarini tartibga soluvchi yangi shartnoma ishlab chiqishlari lozim. Oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ko'pgina Gaaga konvensiyalarining amalda qo'llanilmasligiga sabab kam sonli davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingaligida deb e'tirof etiladi.

Xulosa

Xalqaro xususiy huquqdagi oila va nikoh munosabatlarini tartibga solishda hozirgi kunda ko'plab muammolar yuzaga kelmoqda. Muammolar short-listidan: oqsoq nikohlar, poligamiya va monogamiya, nikoh tuzilishining usullarining turlanishi, bir jinslilar o'rtasida tuzilayotgan nikohlar, diniy va irqiy cheklovlar, ilmiy-doktrinal muammolar va boshqa holatlar o'rinni olgan. Ushbu muammolarni hal qilishda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek erk muxoriyatining rolini yanada oshirish hamda amaldagi xalqaro shartnomalarga o'zgartirishlar kiritish, yuqorida nomi tilga olingan munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni unifikatsiya qilish oila munosabatlaridagi muammolarni hal qilishga samarali yechim bo'lishi mumkin .

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Г.К.Кулдышева , Ш.И. Мадышева. "РОЛЬ И МЕСТО СЕМЬИ В ОБЩЕСТВЕ И ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРОГРАММА ДЛЯ ЕЕ СОХРАНЕНИЯ". International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 2-2(53), 2021.

2. Ольга Александровна Рузакова. "**Семейное право**". Учебник . Москва; 2010

3. Novikova Inna, Abdullin A.I.

"Some actual problems of family relations in private international law"

4. Гетьман Павлова И.В. Международное частное право. Москва; 2005





5. Г. К. Дмитриева. Международное частное право. Учебник. "Проспект". 2015.
6. В. А. Цветков. "Защита семейных прав в Европейском Суде по правам человека"
7. Schalk and Kopf v. Austria (№ 30141/04) European Court of Human Rights. Case of study.
8. Universal declaration of Human Rights. 1948. <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
9. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi. 1994. <https://lex.uz/docs/-111453>

